

The presidential address – a confident step toward sustainable development

Feruz Nizamova Alimullayevna,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY,
OF UZBEKISTAN, PhD, Senior Lecturer,
Uzbek and foreign languages department,
A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.

Abstract

This article analyzes the priority directions of education development outlined in the Address of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, to the Oliy Majlis on December 26, 2025. Particular attention is given to education as an investment in human capital, improving the quality of school education, enhancing the status and professional development of teachers, ensuring equal educational opportunities, and modernizing vocational and higher education systems. The article highlights the role of education as a key factor in socio-economic development and in building a competitive, knowledge-based society in the process of creating a New Uzbekistan.

Keywords: education policy, quality of education, teacher, vocational education, higher education, innovation.

Annotatsiya

Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlisga va O‘zbekiston aholisiga yo‘llagan murojaatnomasida belgilangan ta’lim sohasiga oid ustuvor yo‘nalishlar tahlil qilinadi. Xususan, ta’limni inson kapitaliga sarmoya sifatida rivojlantirish, maktab ta’limi sifatini oshirish, pedagoglar nufuzini mustahkamlash, teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish, kasb-hunar va oliy ta’lim tizimini zamonaviylashtirish masalalari yoritib berilgan. Maqolada

ta'limning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni ochib berilib, Yangi O'zbekistonni barpo etishda ta'limning strategik ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim siyosati, ta'lim sifati, pedagog, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, innovatsiya.

26-dekabr 2025-yil, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va butun xalqimizga murojaatnoma bilan murojaat qildi. Bu nutq mamlakat hayotidagi jiddiy o'zgarishlar, so'nggi yillar natijalari va kelajak strategiyasining eng muhim yo'nalishlari - ijtimoiy hayot, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, huquq tizimi shuningdek, ta'lim tizimi bo'yicha muhim fikrlarni bayon qiladi. U o'z murojaatnomasida 2026-yilni barcha sohalarda tub burilish yili ekanligini ta'kidladi [1].

Davlat rahbari o'z nutqida ta'lim sohasiga alohida urg'u berib, ta'lim mamlakatning eng muhim ustuvor yo'nalishi sifatida ekanini ta'kidladi Ta'lim strategiyasi nafaqat yoshlar bilimni oshirish, balki har bir fuqaroga teng imkoniyat yaratish, ilm-fan, iqtisodiyot va innovatsiyalar bilan bog'liq muammolarni yechishda asosiy vosita sifatida qaralmoqda.

Birinchiidan, ta'lim siyosatining umumiy yo'nalishi Inson kapitali sarmoyasi" haqida fikr bildirildi. Prezident murojaatnomasining markaziy g'oyasi - ta'lim inson sarmoyasi bo'lib, u mamlakatning barcha sohasini rivojlantirish uchun poydevor bo'lishi lozim. Rahbarimiz ta'kidlaganidek, "Najot - ta'limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda". Bu shior ta'limni ma'rifatga olib boruvchi mustahkam tamoyil sifatida belgilanishi kerak [4]. Murojaatnomada ayrim tamoyillar haqida ham fikr yuritildi: ta'lim sifatini oshirish - u maktabdan oliygohgacha uzluksiz va zamonaviy standartlarga mos bo'lishi kerak; pedagog kasbining nufuzi va motivatsiyasi - o'qituvchilar malakasini oshirish, ularning ijtimoiy holati va professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash; teng imkoniyatlar yaratish - har bir yoshda va hududda sifatli ta'lim olish

imkoniyatini kafolatlash. Ta'limning zamonaviylashtirilishi - bu nafaqat darsliklarni yangilash, balki pedagogik metodlarni, baholash tizimini, malaka oshirish mexanizmlarini tubdan takomillashtirish demakdir.

Ikkinchidan, maktab ta'limi: sifat, imkoniyat va innovatsiyalar haqida fikr bildirildi. Prezident murojaatnomasida maktab ta'limi tizimiga quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilandi: a) Dars mazmuni va standartlar yangiligi - maktab ta'limi o'z ichiga nafaqat fanlarni yetkazish, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammolarni hal etish ko'nikmalarini ham olishi kerak. Bu borada xalqaro tajribaga asoslangan dasturlar joriy etiladi va darslar mazmuni qayta ko'rib chiqiladi. b) Pedagoglar malakasini oshirish - o'qituvchi esa ta'limning muhim omili sifatida qaraldi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, malakali pedagoglar jamiyatning haqiqiy negizidir [5]. Ularning sharoitlarini yaxshilash, professional o'sish imkoniyatlarini kengaytirish ham strategiyaning ajralmas qismi bo'ladi. c) Teng huquqli imkoniyatlar - har bir bola, hududdan qat'i nazar, sifatli maktab ta'limini olishi shart. Bu, ayniqsa chekka tumanlarda va qishloq joylarda yashovchi yoshlar uchun juda muhimdir, hamda jamiyatda adolat prinsipini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, kasb-hunarga yo'naltirish va amaliy tayyorgarlik masalasi haqida gapirildi. Murojaatnomada kasb-hunarga yo'naltirilgan ta'lim va mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlash muhimligi qayd etildi. Bu yo'nalish nafaqat iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish, balki yoshlarning bandligini ta'minlashga xizmat qiladi [6].

Nutqda ta'lim tizimida markazlar orqali yoshlar real kasbiy tajriba va amaliy ko'nikmalarni oladi, bu esa ularning bandligini oshirishi haqida fikrlar bildirildi. Texnik kasb-hunar ta'limi sohasida xalqaro standartlar joriy etilishi, chet el tajribasiga asoslangan dasturlar bo'yicha o'quv jarayoni olib borilishi rejalashtirilmoqda. Bu ko'nikmalar yosh mutaxassislarni global mehnat bozorida ham raqobatbardosh qiladi. Prezident murojaatnomasida oliy ta'lim va ilm-fan tizimini tubdantakomillashtirish

niyatini ochiq ifoda etdi. Bu borada oliy ta'limda kredit-modul tizimi joriy qilinishi, shuningdek bu esa talabaga o'z ta'lim yo'lini mustaqil rejalashtirish va moslashtirib borish imkonini yaratishi ta'kidlandi. Oliy ta'lim muassasalari bosqichma-bosqich akademik va moliyaviy mustaqilligini oladi, bu esa ularning innovatsion yondashuvlar va sifatli ilm-ta'lim dasturlarini joriy etishga imkon beradi.

Olimlar uchun grantlar tizimi takomillashtiriladi, ilm-fan sohasida aniq ustuvor yo'nalishlar - masalan, matematika, biologiya, geologiya kabi yo'nalishlar bo'yicha rivojlanish rejalashtiriladi. Bu ilm-fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytiradi.

Prezident murojaatnomasining yana bir muhim jihati - ta'lim siyosati ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishidir. Sifatli ta'lim davlatning ijtimoiy adolatini mustahkamlash, kambag'allikni kamaytirish va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirishning asosiy omilidir [5].

Ta'lim hayotning barcha jabhalari bilan bevosita bog'liq: Bandlik va iqtisodiy o'sish - malakali kadrlar mehnat bozoriga moslashgan bo'lsa, iqtisodiyot tezroq rivojlanadi. Sog'liqni saqlash va ilm-fan - zamonaviy ta'lim inson salomatligi, texnologiyalar va ilmiy izlanishlarda innovatsiyalarni yurgizadi. Jamiyat barqarorligi - ta'limning ijtimoiy rollari orqali yoshlar o'z o'rnini topadi, huquqiy ong va fuqarolik faolligi oshadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim - milliy taraqqiyotning motori hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning murojaatnomasi ta'limga davlat siyosatining markaziy o'rnini berayotgani bilan muhimdir. Murojaatnoma ta'limni modernizatsiya qilish, zamon talablariga moslashtirish, pedagog sifatini oshirish, maktabdan oliygohgacha uzluksiz ta'limni ishlab chiqish va yoshlarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishga katta e'tibor qaratadi. Bu yo'nalishlar nafaqat talabalarga, balki butun jamiyat va davlatning kelajagiga xizmat qiladi. Prezidentning ta'lim bo'yicha belgilagan

strategiyasi mamlakatning raqobatbardosh, bilimga asoslangan jamiyat qurish yo‘lida muhim qadam bo‘lib, Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda ta’limni har tomonlama mustahkamlashni amalga oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш. М. Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига Мурожаатнома. — Тошкент, 26 декабрь 2025 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ва минтақаларо тадқиқотлар институти. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. — Тошкент, 2022. — 220 б.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. — Тошкент, 2020.
3. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. — Paris: UNESCO Publishing, 2016. — 84 p.
4. OECD. Education at a Glance: OECD Indicators. — Paris: OECD Publishing, 2023. — 460 p.
5. Абдуллаев А. А., Каримова Н. Н. Таълим сифати ва рақобатбардош кадрлар тайёрлаш масалалари. — Тошкент: «Фан ва технология», 2021. — 156 б.